

# AMALIY SAN'AT ORQALI O'SPIRIN YOSHDAGI O'G'IL BOLALARNI MUSTAQIL HAYOTGA TAYYORLASH – KELAJAK TARAQQIYOTI SIFATIDA

*Islamova Fotima Shamsiddinovna*  
**Xalqaro Nordik universiteti**  
**katta o'qituvchi**

## **Annotatsiya**

Maqola oila pedagogikasining dolzarb muammolaridan biri – oilada o'spirin yoshidagi o'g'il bolalarni amaliy san'at asosida mustaqil hayotga tayyorlash va ularni kasbga yo'naltirishga bag'ishlangan. Maqolada oilaviy tarbiya talablarini hisobga olgan holda badiiy ta'lim va milliy an'analar asosida oilaviy hayotga tayyorlash masalalari, ta'lim muassasalarida o'g'il bolalarni oilaviy hayotga tayyorlashda kasb-hunarga o'rgatishni to'g'ri tashkil etishga erishish yo'llari aniq ko'rsatilgan.

## **Аннотация**

Статья посвящена одной из актуальных проблем семейной педагогики – подготовке мальчиков семейного возраста к семейной жизни на основе прикладное искусство и их ориентации в профессии. В статье наглядно показаны вопросы подготовки к семейной жизни на основе национальных традиций, с учетом требований семейного воспитания, пути достижения правильной организации профессионального обучения для подготовки мальчиков к семейной жизни в образовательных учреждениях.

## **Annotation**

The article is devoted to one of the urgent problems of family pedagogy – the preparation of boys of family age for family life on the basis of applied art and their orientation in the profession. The article clearly shows the issues of preparation for family life on the basis of national traditions, taking into account the requirements of family education, ways to achieve the correct organization of vocational training to prepare boys for family life in educational institutions.

***Kalit so'zlar:** Tarbiya, ta'lim, amaliy san'at, badiiy ta'lim, o'g'il bolalar tarbiyasi, ma'naviy-axloqiy tarbiya, oilaviy hayotga tayyorgarlik, milliy an'analar, urf-odatlar, qadriyatlar.*

***Klyuchevye slova:*** *Vospitanie, prikladnoe iskusstvo, xudojestvennoe obrazovanie, vospitanie malchikov, duxovno-nravstvennoe vospitanie, podgotovka k semeynoy jizni, natsionalnye traditsii, obychai, sennosti.*

***Keywords:*** *Education, applied art, art education, upbringing of boys, spiritual and moral education, preparation for family life, national traditions, customs, values.*

Bugun Yangi O‘zbekiston dunyoga yuzlanayotgan davrda barcha sohalar kabi, kelajagi buyuk davlatni barpo etishda uning badiiy ta’lim va tarbiya jarayonlari ham dunyo bilan hamnafas rivoj topmoqda.

Albatta, badiiy ta’limda ham amaliy san’at orqali yoshlarni mustaqil hayotga tayyorlash tajribasi mavjud bo‘lib, ertangi kun kelajagiga mustahkam poydevor qurish uchun fan va badiiy ta’limni uyg‘unlashtirish muhim hisoblanadi.

Amaliy san’at turlari bo‘yicha ta’lim berish orqali o‘spirin yoshdagi o‘g‘il bolalarni oilaviy hayotga tayyorlashdagi imkoniyatlari haqida fikr yuritishdan avval uning tarbiyaviy imkoniyatlarini aniqlab olish zarur. Bu borada ma’lum ilmiy-amaliy tajribalar to‘plangan bo‘lib, u amaliy san’at turlarining yosh avlodni mustaqil oilaviy hayotga tayyorlashda qo‘llanilishi muhim bo‘lgan kasbiy pedagogik bilimlar, tushunchalar, tamoyillar sifatida ifodalanadi.


Amaliy san’at turlaridan birini kasb hunar sifatida egallashning tarbiyaviy imkoniyatlarini xalq tarbiya tajribasidan joy olgan empirik, pedagogik bilimlar, ma’lumotlar, ko‘nikma va malakalarning zamonaviy maktab va oilaviy tarbiya tizimida bolalar va o‘quvchi-yoshlarni tarbiyalash maqsad va vazifalarini hal etish uchun zarur (qulay shart-sharoit yaratish), deb hisoblayman. Badiiy ta’limning didaktik imkoniyatlaridan esa yoshlarga bilim va amaliy ko‘nikmalar berish, ularni ijodiy ishlash metodlari bilan qurollantirish, dunyoqarashini o‘stirish va axloq, nafosat g‘oyalarini egallashda qo‘llanilib kelingan empirik pedagogik tajribasini ta’lim jarayonida foydalanish uchun qulaydir.

Bizningcha, amaliy san’at turlari bo‘yicha badiiy ta’lim imkoniyatlarini ta’lim-tarbiyaviy jihatdan uzviy bo‘lib unga milliy an’analarning tarbiyaviy hamda ta’limiy (didaktik) tomonlarini ham kiritish lozimdir. Milliy an’analarning ta’lim-tarbiyaga

doir imkoniyatlarini «O‘spirin yoshdagi o‘g‘il bolalarni oilaviy hayotga tayyorlashda qo‘llanilishi muhim bo‘lgan pedagogik bilimlar, tushunchalar, tamoyillar», deb ta’rifladik. Endi, biz tadqiq etayotgan muammo nuqtai nazaridan milliy an’analar orqali o‘spirin yoshdagi o‘g‘il bolalarni oilaviy hayotga tayyorlash imkoniyatlari deganda, uning oilaviy hayotga doir pedagogik bilimlar, tushuncha va tamoyillarining o‘spirin yoshdagi o‘g‘il bolalarni tarbiyalash tizimiga tatbiq etishdagi shart-sharoitlari tushuniladi. Shunday ekan, oilaviy tarbiyaga doir tushuncha va tamoyillar uning manbalari asosida o‘spirin yoshdagi o‘g‘il bolalarga yetkaziladi. Bunda milliy an’analarning manbalari keng va boy materialga egadir.

Aytish lozimki, xalq pedagogi haqida ta’lim-tarbiyaga doir empirik bilimlar ko‘proq milliy an’analarda namoyon bo‘lgan.

Tadqiqotda o‘g‘il bolalarni oilaga tayyorlashda milliy an’analar manbalari o‘rganilgan va bir tizimga keltirilgan: o‘zbek xalq og‘zaki ijodi (folklor); milliy urf-odatlar, an’analar, marosimlar; xalq o‘yinlari va o‘yinchoqlar; diniy ta’limotlar; xalq amaliy san’ati va hunarmandchiligi; milliy musiqa va qo‘shiqchilik san’ati; tasviriy san’at; tarixiy yodgorliklar va milliy me’morchilik; xalq raqs san’ati (xoreografiya); xalq tabobati va shu kabilar (1.2-rasm).



1.2-rasm. O‘g‘il bolalarni oilaviy hayotga tayyorlashda yordam beradigan milliy an’analar manbalari tizimi

Ma'lumki, o'rta maxsus ta'lim muassasalarida mutaxassislikka doir o'rganilayotgan fanlar tarkibida ham bevosita milliy an'analarning u yoki bu manbalaridan foydalanish mumkin. Masalan, sanoat-pedagogika, tasviriy san'at va badiiy-grafika, musiqa yo'nalishlaridagi kollejlarda o'yin va o'yinchoqlar, xalq amaliy san'ati va hunarmandchiligi, tarixiy yodgorliklar va milliy me'morchilik, xalq raqs san'ati shular jumlasidandir. Shu bilan birga pedagogika, tarix, adabiyot o'quv fanlarini barcha o'rta maxsus kasb-hunar muassasalarida o'rganish jarayonida ham o'spirin yoshdagi o'g'il bolalarni oilaviy hayotga tayyorlashda yuqorida sanab o'tilgan milliy an'analarning barcha manbalari imkoniyatlaridan foydalaniladi.

Xalqning turmushi, uning qadriyatlari, hatto orzu-istaklarini tasvirlab, bozorlarda, bayramlar va xalq sayillarida qo'g'irchoq teatr tomoshalari namoyish etilgan. Ularda turmushdagi (oiladagi ham) insoniylik, aql-idrok, mardlik, xalqparvarlik, mehr-oqibat ulug'lanib, qalloblik, yovuzlik, boylikka hirs qo'yish kabi illatlar kulgi ostiga olinadi. Xalqimizning axloq me'yorlari qo'g'irchoq vositasida yosh avlod ongiga yetkazilgan. Oilaviy tarbiyada ham milliy o'yinchoqlardan foydalanilgan. Milliy o'yinchoqlarni yasashda «Maktabgacha ta'lim», «Boshlang'ich ta'lim metodikasi», pedagogika kollejlarida, «Kasbiy ta'lim» kasb-hunar kollejlarida, «Badiiy rassomchilik» dizayn va san'at hamda sirk kollejlarida katta ishlar olib borish mumkin. Bu kollejlarda o'quvchi yoshlar milliy o'yinchoqlar yasash uchun o'z tasavvurlari, o'y-fikrlari, ijodkorliklarini ifodalaydilar. Xalq amaliy san'ati va hunarmandchiligi xalq ijtimoiy hayotining ko'zgusi hisoblanadi. Xalq amaliy san'atiga kulolchilik, temirchilik, zargarlik, to'quvchilik, tosh yunuvchilik, duradgorlik, yogoch va mis uymakorligi, gilamchilik, zardo'zlik, kashtachilik, maishiy buyumlar, beshik, belanchak, juva va taxtakachlar yasash, liboslar tikish kabilar kiradi va bular xalq ijtimoiy hayotini aks ettiradi. Bu hunarlarning barchasi o'spirin yoshdagi o'g'il bolalarda xalqimizning o'tmishi va hozirgi hayotini taqqoslash nimaiki yaratilgan bo'lsa, barchasining qadri, o'rni, ishlatish darajasini bilishga imkon beradi. Xalq amaliy san'ati va hunarmandchiligi oila sharoitida yaratilgan bo'lib, avloddan avlodga o'tib kelmoqda. Ular bilan o'spirin yoshdagi o'g'il bolalarning ko'pchiligi oila sharoitida

tanishadilar yoki kasbiy ta'lim, badiiy-grafika kollejlarda ilmiy-amaliy jihatlarini o'rganadilar.

Masalan, qo'l bilan to'qilgan gilamlar o'zining chiroyliligi bilan mashhur. Kulolchilik ham o'ziga xos xususiyatga ega bo'lib, Namangan, Farg'ona (Rishton), Xorazm, Toshkent, Samarqand kulolchiligi o'zining qadimiyligi bilan jahonga dong taratgan. O'zbekistonda ganch va yog'ochga naqsh solish ham rivojlanib bormoqda. Qo'qon va Toshkent o'ymakorlik maktablari, ayniqsa, mashhur bo'lib, xonadonlardan tashqari, teatr devorlari, madaniyat saroylari, muzeylar va boshqa jamoat binolarini bezab turibdi. Samarqandning «Julxirsi» deb nomlangan uzun patli gilamlari, Marg'ilon va Namangan atlaslari, Nukusda tayyorlanadigan namatkigizlari, Buxoroning zarduzlik san'ati dunyoga mashhur. Hozirgi davrda bularga bo'lgan e'tibor, talab va ehtiyojlar ham o'sib bormoqda. Ilgari chinni idish-tovoq, mebel, kiyim-kechak va boshqa maishiy buyumlar fabrikalarda ishlangan bo'lsa, hozir mahallalarda, hatto oilalarda tadbirkorlik asosida ishlab chiqarilmoqda. Har bir inson uy jihozlarning ko'rkam va shinam bo'lishini istaydi, o'z didlari va go'zallik to'g'risidagi tasavvurlari bilan ham ish ko'radilar. Shuning uchun o'spirin yoshdagi o'g'il bolalarni kasb-hunar tanlash an'analari davom ettirib, oilaviy tadbirkorlik tizimini kengaytirish lozim. Bu esa, o'spirin yoshdagi o'g'il bolalar hayotining moddiy va ma'naviy tomondan barqaror, o'z oilasi, yurtining go'zal va boy bo'lishiga hissa qo'shadi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:**

1. Raxmanova F.Sh. «Osobennosti selevogo obucheniya pri podgotovke malchikov k semeynoy jizni na osnove natsionalnykh traditsiy». Nauchno-populyarnyy jurnal «Ditya i vremya». №4 / 2016.
2. Islamova F.Sh. Pedagogicheskie i psixologicheskie metody podgotovki malchikov k braku na osnove natsionalnykh traditsiy. «Obrazovanie, nauka i innovatsii». Duxovno-prosvetitel'skiy nauchno-metodicheskiy jurnal. Tashkent. 2019/3-vypusk.
3. Raxmanova F.Sh. Pedagogicheskie vozzreniya vostochnykh mysliteley v dele podgotovki malchikov k semeynoy jizni na osnove natsionalnykh traditsiy. «Molodoy uchenyy» №4. Uchreditel i izdatel: OOO «Izdatelstvo Perm». 39) / 2012 g.

4. Gulnara, M., Gulnoza, O., & Dilafrooz, M. (2023). EFFECTIVE DEVELOPMENT OF COMMUNICATIVE COMPETENCIES OF FUTURE SPECIALISTS. *Open Access Repository*, 4(03), 340-348.
5. Shomurodova, S. X. (2020). ERKIN VOHIDOV G‘AZALLARIDA TALMEH SAN‘ATINING O‘RNI. *MEJDUNARODNIY JURNAL ISKUSSTVO SLOVA*, 3(5).
6. Xolmatov M. Yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash omillari. // Falsafa va huquq – T.: 1998. – 21 b.
7. Mirshadmanovna, X. Z., & Qizi, Q. M. M. (2023). BOSHLANG ‘ICH SINF O ‘QUVCHILARIGA PREDMETLARARO INTEGRATSIYA VOSITASIDA METAPREDMET TUSHUNCHALARINI O ‘RGATISH. *Science and innovation*, 2(Special Issue 14), 658-663.
8. F.Sh.Islamova, F.Sh.Fayazova. Family traditions in vocational guidance, a guarantee of preparing young people for independent living. -*ACADEMICIA An International Multidisciplinary Research Journal* (Double Blind Refereed & Peer Reviewed Journal). ISSN: 2249-7137 Vol. 11, Issue 10, October 2021 Impact Factor: SJIF 2021 = 7.492.
9. Islamova F.Sh, Vaniyan S.B. The role of parents in forming spiritual education on the basis of creative approaches. *current research journal of pedagogics*. ISSN 2767-3278 ©2021 Master Journals. 2(12): 162-165, December 2021.
10. F.Sh. Fayazova, O.A. Otajonova, F.Sh. Islamova. The Role Of Art Therapy In The Formation Of Healthy Living Skills In Adolescents. *Natural Volatiles and Essential Oils (NVEO)* , 2021; 8(4): 15291-15295.
11. Islamova F.Sh, Vaniyan S.B. The role of parents in forming spiritual education on the basis of creative approaches. *current research journal of pedagogics*. ISSN 2767-3278 ©2021 Master Journals. 2(12): 162-165, December 2021.
12. Islamova, F. (2024). YaNGILANAYoTGAN JAMIYA TDA O‘G‘IL BOLALARNI HUNARMANDCHILIK ASOSIDA MUSTAQIL OILAVIY HAYoTGA TAYYoRLAShDA INNOVATSION YoNDAShUV. *Nordic\_Press*, 3(0003).
13. Islamova, F. Sh. (2022). YoShLARNI MUSTAQIL HAYoTGA TAYYoRLAShDA SOG‘LOM TURMUSH TARZI–OILA FAROVONLIGI OMILI SIFATIDA. *Eurasian Journal of Social Sciences, Philosophy and Culture*, 2(5), 41-46.
14. Otajonova, O. A., Islamova, F. S., Fayazova, F. S., & Nematov, B. S. (2022). The Influence Of Parental Relationships On Adolescent Gender Identity. *Journal of Positive School Psychology*, 6(10), 2393-2399.
15. Rakhimberganovna, H. S. (2024). CREATION OF ELECTRONIC INFORMATION LEARNING ENVIRONMENT OF UNIVERSAL EDUCATION SCHOOLS AND DEVELOPMENT OF INFORMATION COMMUNICATION COMPETENCE (ICC) IN STUDENTS. *American Journal of Interdisciplinary Research and Development*, 25, 273-276.
16. Abdullayevich, S. K., & Rakhimberganovna, H. S. (2024). MODERN APPROACHES AND INNOVATIVE TECHNOLOGIES IN BIOLOGY EDUCATION. In *E Conference World* (No. 6, pp. 9-15).